

**TA'LIM, ILM –FAN, SPORT HAMDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDA
TENG HUQUQ HAMDA IMKONIYATLARNI TA'MINLASH**

Narqulova Muqaddas Ulug'bekovna¹

¹ TTA Urganch filiali "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 13.06.2025

Revised: 14.06.2025

Accepted: 15.06.2025

ANNOTATSIYA:

KALIT SO'ZLAR:

Taraqqiyot

Strategiyasi, inklyuziv ta'lif, "Yashil hudud", "Salomatlik yo'laklari", milliy oilmpiada, tibbiy klasterlari, tibbiy savodxonlik, tibbiy sug'urtalash.

Mazkur maqolada mamlakatimizda ta'lif, ilm - fan, sport hamda sog'liqni saqlash sohalarida fuqarolarning teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan sa'y - harakatlar, shuningdek istiqboldagi rejalar, ularning huquqiy asoslari to'g'risida atroflicha so'z yuritilgan.

KIRISH. Respublikamizda so'nggi yillarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, gender tenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning buniyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ijtimoiy sohaga alohida e'tibor qaratilib, ta'lif tizimida qator yangiliklar, ilm - fan sohasida o'z qobiliyati va intilishlarini namoyon etayotgan yoshlarni qo'llab - quvvatlash va iqtidorlarini namoyon etishlari uchun qulay muhit yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi"da erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli

xorijiy oliygochlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o‘qitish, shuningdek xorijiy davlatlarning eng nufuzli universitetlarida bakalavriat, magistratura va doktoranturada ta’lim olish uchun ochiq saralash tanlovlarni o‘tkazish 50-maqсад sifatida qayd etilgan. Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashishda yoshlardan ochiq va sifatli ta’limni ta’milanayotgani, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’milanayotgani, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratilayotgani yoshlarni kelgusida o‘z tanlagan sohalarining yetuk mutaxassisi bo’lishiga zamin yaratadi.

Nafaqat ilm - fan, balki sport sohasiga ham e’tibor yuqori bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini 2026-yilda 33 foizga chiqarish muhim maqsadlardan biridir. Chunki aholining jismonan sog‘lom bo’lishida bevosita jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati yuqori. Shu sababdan, Respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, O‘zbekistonda sportning ommaviyligini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish, yurtimizning chekka hududlari va qishloqlarida sog‘lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish, barpo etilayotgan har bir “Yashil hudud”da yugurish, velosipedda harakatlanish uchun “Salomatlik yo‘laklari” hamda badminton, stritbol va vorkaut maydonchalarini tashkil etish, milliy olimpiada sport o‘yinlarini o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, milliy olimpiada o‘yinlarini yuqori darajada tashkil etish hamda g‘olib va sovrindorlarni munosib rag‘batlanirishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu sababi ham O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko‘rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma’lumotli trenerlarning amaldagi ulushini 2026-yilda 85 foizga oshirish reja qilingan[1].

Shu bilan bir qatorda sog‘liqni saqlash sohasida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, barcha uchun o‘z huquqlarini amalga oshirishda tenglikni ta’minalash keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qilmoqda.

- ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish;

- aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirish, budget mablag‘laridan samarali foydalanish, tibbiy xizmatlarni markazlashtirish va aholini tibbiy sug‘ortalash amaliyotini joriy qilish;

- markazlashgan laboratoriya, sterilizatsiya va yuqori texnologik tekshiruvlar tizimini tashkil etish;

- aholini tibbiy sug‘urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish;

- davlat tibbiyat muassasalaridagi tibbiy asbob-uskuna va jihozlarga texnik xizmat ko‘rsatish tizimini yaratish; Tibbiy asbob-uskunalarga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha alohida korxona va uning 13 ta hududiy bo‘limlarini tashkil etish.

- dori-darmon va tibbiy buyumlar muomalasini tartibga solish hamda aholiga arzon va sifatli mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish;

Reproduktiv yoshdagagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan[2].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minalash borasida ham bugun muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

- Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash;

- Gender tenglikni ta’minalash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;

- Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish;

Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta’minalash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi[3].

Yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashda ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash zaruriy asos bo‘lib xizmat qiladi[4].

Hulosa. Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, yoshlarning bo‘s sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, fuqarolarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish ularning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sifatida e’tirofga molik. Bu insonlarning

jamiyatda barkamol shaxs sifatida namoyon bo'lishlari hamda o'z ilmiy, ijodiy hamda jismoniy salohiyatini namoyon etishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". Toshkent-2023
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni. 25.07.2022
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 -2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2022.
4. Lex.uz

